

“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AKSIYADORLIK JAMIYATI

06. Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar

EMITENTNING NOMI							
1.	To‘liq:	“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati					
	Qisqartirilgan:	“NKMK” AJ					
	Birja tikerining nomi:*	Mavjud emas					
ALOQA MA’LUMOTLARI							
2.	Joylashgan yeri:	210100, Navoiy viloyati, Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi, 27-uy					
	Pochta manzili:	210100, Navoiy viloyati, Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi, 27-uy					
	Elektron pochta manzili:*	info@ngmk.uz					
	Rasmiy veb-sayti:*	www.ngmk.uz					
MUHIM FAKT TO‘G‘RISIDA AXBOROT							
Muhim faktning raqami:		06					
Muhim faktning nomi:		Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar					
Umumiy yig‘ilish turi:		Navbatdan tashqari					
Umumiy yig‘ilish o‘tkazish sanasi:		2024-yil 7-mart					
Umumiy yig‘ilish bayonnomasi tuzilgan sana:		2024-yil 7-mart					
Umumiy yig‘ilish o‘tkazilgan joy:		Navoiy viloyati, Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi, 27-uy					
Umumiy yig‘ilish kvorumi:		100%					
№	Ovoz berishga qo‘yilgan masalalar	Ovoz berish yakunlari					
		Yoqlash		qarshi		betaraflar	
		%	soni	%	soni	%	soni
3.	“NKMK” AJ aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi raisi va kotibini saylash.	100	15 000 000 000	0	0	0	0
	“NKMK” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamenti, sanoq komissiyasining soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.	100	15 000 000 000	0	0	0	0
	“NKMK” AJning ustav kapitalini kamaytirish to‘g‘risida.	100	15 000 000 000	0	0	0	0
	“NKMK” AJ Ustavining yangi tahririni tasdiqlash.	100	15 000 000 000	0	0	0	0
	“NKMK” AJning “Aksiyalar birlamchi chiqarilishi to‘g‘risida”gi qarori matniga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida.	100	15 000 000 000	0	0	0	0
Umumiy yig‘ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning to‘liq bayoni:							
1.	Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi raisi hamda yig‘ilish bayonini yuritish uchun yig‘ilish kotibi nomzodlari tasdiqlansin.						
2.	1. “NKMK” AJ aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishi reglamenti quyidagi tartibda tasdiqlansin: - majlis kun tartibi bo‘yicha asosiy ma‘ruzalar – 15 daqiqagacha; - har bir masala bo‘yicha savollar va bahslar – 10 daqiqagacha; - har bir savoldan keyin munozaralarda nutq so‘zlash – 5 daqiqagacha. 2. “NKMK” AJ aksiyadorlari yillik umumiy yig‘ilishining Sanoq komissiyasi tarkibi tasdiqlansin.						
3.	3.1. “NKMK” AJ Janubiy kon boshqarmasiga qarashli, balans qoldiq qiymati 167 880 137,39 so‘mni tashkil qiladigan, Kadrlar tayyorlash bo‘limi binosi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga “Inson” ijtimoiy xizmatlar						

	markazini joylashtirish uchun “NKMK” AJning ustav kapitalidagi davlat ulushini kamaytirish hisobiga berilganligi inobatga olinsin va topshirish-qabul qilish dalolatnomasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. 3.2. “NKMK” AJ ustav kapitali “NKMK” AJ aksiyadorlari egaligidagi oddiy aksiyalar sonini mutanosib ravishda Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobidan 164 523 ta, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hisobidan 3 358 taga, jami 167 881 donaga qisqartirish yo‘li bilan 167 881 000 so‘mga kamaytirilsin. Bunda topshirilgan Binoning balans qoldiq qiymati va ustavning kamaytiriladigan miqdori orasida yuzaga kelgan 862,61 so‘m farq NKMK AJning keyingi aksiyalar chiqariluvida inobatga olinsin.
4.	“NKMK” AJ Ustavining yangi tahriri 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
5.	“NKMK” AJning “Aksiyalar birlamchi chiqarilishi to‘g‘risida”gi qaroriga o‘zgartirishlar matni 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
	Aksiyadorlik jamiyatining ijroiya organi, kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi a’zolari foydasiga haq va (yoki) kompensatsiyalar hisoblanmagan.
	Kuzatuv kengashi a’zolari saylanmagan.
	Ustavga kiritilayotgan o‘zgartirish va (yoki) qo‘shimchalarning matni:
	6.2. Ustav fondi (kapitali) miqdori 14 999 832 119 (o‘n to‘rt milliard to‘qqiz yuz to‘qson to‘qqiz million sakkiz yuz o‘ttiz ikki ming bir yuz o‘n to‘qqiz) dona oddiy aksiyalarga bo‘lingan 14 999 832 119 000 (o‘n to‘rt trillion to‘qqiz yuz to‘qson to‘qqiz milliard sakkiz yuz o‘ttiz ikki million bir yuz o‘n to‘qqiz ming) so‘mni tashkil etadi.
	9.2. Jamiyat joylashtirilgan aksiyalarga qo‘shimcha ravishda nominal qiymati 1 000 (bir ming) so‘mni tashkil etadigan 1.000.000.000.000 (bir trillion) so‘m miqdoridagi 1.000.000.000 (bir milliard) dona e‘lon qilingan oddiy qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish huquqiga ega.
	9.3. Jamiyatning ustav fondi (kapitali)ni ko‘paytirish to‘g‘risidagi va Ustavga Jamiyatning ustav fondi (kapitali)ni ko‘paytirish hamda Jamiyatning e‘lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog‘liq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi qarorlar Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

“NKMK” AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktor

Q.S. Sanaqulov

Bosh buxgalter:

J.V. Novikova

Veb-saytda axborot joylashtirgan vakolatli shaxsning F.I.Sh.:

S.N. Murtazayev